
«Дарё»: Fayzulla Qosimov Farg'ona viloyati hokimi o'rinbosari etib tayinlandi

26-fevral kuni Xalq deputatlari Farg'ona viloyat, shahar va tuman kengashlarining qo'shma sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda tashkiliy masala ko'rildi. Fayzulla Qosimov Farg'ona viloyati hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari etib tayinlandi. Bu haqda viloyat hokimligi matbuot xizmati "Daryo"ga ma'lum qildi.

Fayzulla Qosimov 1972-yilda Bag'dod tumanida tug'ilgan, 1995-yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutini tamomlagan.

Mehnat faoliyati davomida Farg'ona viloyati Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasi boshlig'i, Farg'ona viloyati hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha yordamchisi, viloyat fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengash raisining diniy-ma'rifiy masalalar bo'yicha o'rinbosari, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar to'lanishini monitoring qilish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari kabi vazifalarda ishlagan.

2019-02-27 20:00:40